

KO'RISH NUQSONIGA EGA BOLALARNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK  
TAVSIFNOMASI.

**Nizamova Malika Ravshan qizi**

*Nizomiy nomidagi TDPU Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim fakulteti talabasi.*

*E-mail:malikanizomova47@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar va ularning psixologiyasi*

**Kalit so'zlar:** *Ko'rlik, Ko'ruv o'tkirligi, Astigmatizm, Glaukoma, Miopiya*

**PSYCHOLOGICAL-PEDAGOGICAL DESCRIPTION OF VISUALLY IMPAIRED  
CHILDREN.**

**Abstract:** *Visually impaired children and their psychology.*

**Key words:** *Blindness, visual acuity, Glaucoma, Myopia.*

Ko'ruv jarayonining buzilishi tug'ma va keyinchalik paydo bo'lishi mumkin. Tug'ma ko'rlik homilaning ona qornidagi vaqtida bo'lgan kasalliklar va shikastlanishlar oqibatida paydo bo'lishi mumkin yoki ba'zi bir ko'ruv nuqsonining nasldan-naslga irsiy o'tishi natijasida bo'lishi mumkin. Ko'zi ojizlik va ko'rishning jiddiy buzilishining rivojlanish jarayoniga salbiy ta'siri bilish faoliyatining barcha turlarida o'g'ishlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq va ko'rish nuqsoni bolaning rivojlanishiga ta'sir etmaydigandek ko'rinadigan o'rinlarda ham namoyon bo'ladi. Bu olinadigan axborot miqdorining kamayishi va uning sifati o'zgarishida namoyon bo'ladi. Miqdor o'zgarishlari hissiy bilish sohasida, ko'rish hislari, idroki va tasavvurining jiddiy qisqarishi yoki mutlaqo yo'qligida namoyon bo'ladi, bu tasavvur va xotira obrazlari shakllanish imkoniyatlarini cheklaydi. Rivojlanishning o'ziga xos sifat xususiyatlari nuqtai nazaridan birinchi galda psixik tizimlar: ularning strukturalari tizim ichida aloqalar funktsiyalar va munosabatlarning shakllanish xususiyatlarini tilga olish joiz. Analizatorlar o'zaro munosabatlar tizimida sifat o'zgarishlari bo'ladi, obrazlar, tushunchalar, nutqning shakllanish jarayonida, fikrlash faoliyatida obrazlilik va tushunchaviylik nisbatida, makonda orientirlanish va sh.k larda o'ziga xos xususiyatlar yuzaga keladi. Jismoniy rivojlanishda – Harakatlar aniqligi, intensivligida jiddiy o'zgarishlar bo'ladi, yurish va boshqa harakat aktlari o'ziga xos ko'rinish kash etadi. Demak, bolada o'zining, juda o'ziga xos, birlamchi nuqson tufayli rivojlanishning turli darajalarida bo'lgan jarayonlarni, shuningdek, rivojlanishning yangi kompensator yo'llari asosida uni korrektsiyalashni o'z ichiga olgan bo's normal rivojlanayotgan bolaning biror tizimiga struktura jihatidan o'xshamaydigan o'ziga xos psixologik tizimi shakllanadi. Bundan ko'rinadiki, ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarda funktsiyalararo aloqalar ham boshqacha, o'ziga xos amalga oshadi. Shu sababli

psixologik tizimning shakllanishi va rivojlanishi ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korrektsion ishlar va kompensator jarayonlar tizimini shakllantirish bilan bevosita bog'liq. S.L.Rubinshteyning ta'kidlashicha "Ko'rish predmetlarni to'la idrok etishga imkon beradi". Ta'kidlab o'tish joizki, inson atrof-muhitni bilishda asosiy analizator ham ko'zdir. Biz ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning pedagogik jarayon uchun asos bo'ladigan analizatorlarning yetakchi tizimi nuqtai guruhlanishini ko'rib chiqamiz. Oftalmalogik nuqtai nazarda "0" vizusli va yorug'likni his qiladigan, shuningdek korrektsiya bilan ko'radigan ko'zida 0.04 qoldiqli ko'rish o'tkirligiga ega bolalar Brayl tizimi bo'yicha paypraslash asosida idrok etishga mo'ljallangan qo'llanmalar bo'yicha, 0.05 dan 0.4 gacha vizusli bolalar esa ko'rish idroki asosida o'qitiladi. L.P.Grigoreva rahbarligidagi oxirgi tadqiqotlar bolalarni guruhlash mezonlariga tizimli ko'rish obrazlarining shakllanish jarayonlarini tavsiflaydigan psixologik xususiyatlarini kiritish zaruriyatini ko'rsatadiki, zamonaviy sharoitda pedagogik amaliyotda ko'plab mamlakatlarda qabul qilingan, aynan esa qoldiqli ko'rishdan u yoki bu darajada foydalanadigan ham kiradi.

**Ko'rlik.** Ko'r yoki zaif ko'ruvchilarining 90% tug'ma yoki ilk yoshlarda orttirilgan bo'ladi. Ko'rish a'zosining chuqur zararlanishi natijasida insonning atrofini qabul qilish faoliyatida qator nuqsonlar, qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ko'rlik bu total yoki ko'rish qobiliyatining og'ir darajadagi yo'qolishining bo'lishi mumkin. Bolalarning ko'r bo'lib tug'ilganligi yoki erta bolalik davrida ko'rish qobiliyatini qisman yoki butunlay yo'qolganligini muhim ahamiyatga ega. Yosh bolalar kasalliklari orasida ko'rish organining zararlanishida asosiy o'rin egallanadi. Ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarda birlamchi nuqsonlar patologiyasin yuzaga keladi. Ko'rish o'tkirligi, rang ajratish, ko'rish va h.z.

Ko'ruv o'tkirligi-ko'zni bir-biridan eng kam masofada turgan ikki nuqtani ayrim-ayrim ko'ra olish layoqatidir. Ko'rish nuqsonlarining eng ko'p tarqalgan shakllardan biri-refraksiya alohida yordamga muhtojiyalaridir. Ularga yaqin ko'rishning turli darajalari kiradi. Refraksiya alohida yordamga muhtojlik ya'ni nurlarni sindiruvchi fokus ko'z nurlarini sindiruvchi fokus ko'z turi oldida bo'ladi.

Astigmatizm, ko'pincha uzoq va yaqindan ko'rishning buzilishi qo'shib keladi. Shox pardaning shakli buzilishi natijasida nurlar noto'g'ri sindiriladi. Astigmatizmi bor bo'lgan bolalar setchatkasida vertikal, gorizantal va boshqa yo'nalishdagi kuzatiladi. Ko'z to'r pardasining arteial qon aylanishining o'tkir buzilishi-ko'ruv a'zosini eng og'ir kasalliklaridan biri hisoblanib, ko'pincha ko'rish qobiliyatini to'la yoki qisman yo'qolishiga olib keladi.

Glaukoma-ko'z ichki bosimini oshishi-ko'z kasalliklari ichida eng og'ir kehadigan ko'z ichki bosimini barqaror ko'tarilishi oqibatida qaytarib bo'lmas ko'rlikka olib keladigan og'ir xastalik hisoblanadi.



Miopiya kasallikning rivojlanishi davri 9-yoshgacha to‘g‘ri keladi. Agar miopiyani vaqtida aniqlab kerakli davo choralari ko‘rilsa, nafaqat ko‘rish qobiliyati pasayishining oldi olinadi, balki ushbu jarayonni orqaga qaytarish ham mumkin.

Katarakta yunoncha “katarhaktars”, “sharshara” ko‘z kasalliklaridan biri bo‘lib, aslida tiniq ko‘z gavharining xiralashuvidir. Kataraktning rivojlanishi inson organizmining ba‘zi kasalliklarining asorati, qolaversa, tashqi muhit omillariga ham bog‘liq. Ko‘zning xira tortishi uning boshqa kasalliklarida ham kuzatiladi. Kataraktning davolashning yagona yo‘li-jarohhlik operatsiyasi bo‘lib, bunda xiralashgan ko‘z gavhari intraokulyator linza-sun‘iy gavhar bilan almashtiriladi. Ko‘r bolalarda predmetli tasavvurlar zahirasi ancha kam, ular mavjud tasavvurlar obrazlar bilan ishlashda qiynaladilar. Maktabgacha yoshdagi ko‘r bolalarda harakatchanlik sustligi, harakat malakalarining aniq yetishmasligi kuzatiladi. Ko‘r bolalarda ikkilamchi nuqsonlar bilish faoliyatida ham namayon bo‘ladi, predmetlar haqida tasavvurlar o‘zligi, predmetlar haqida tasavvurlar yo‘qligi inobatga olinadi. Zaif ko‘ruvchi bolalar uchun maxsus maktab-internatlariga ko‘rish nuri 0,05-4 gacha bo‘lgan bolalar qabul qilinadi, bunda kasallikning huruj qilishi, shakli, turi ham mavjud. Ko‘z nuri 0,2 dan yuqori bo‘lgan bolalar umumta‘lim maktablarda o‘qishlari mavjud. Bog‘cha bo‘limiga 3-7 yoshgacha bo‘lgan bolalar qabul qilinadi. Maktab-internatlarining 1-sinfiga bolalar 7-yoshdan qabul qilinadilar. Aqli zaif bo‘lgan ko‘zi to‘liq ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar yordamchi dastur asosida ta‘lim-tarbiya beriladigan maxsus sinflarda o‘qitiladi. Ko‘zi ojiz, zaif ko‘ruvchi bolaning o‘zlashtirish me‘yorlarini aniqlashtirish uchun aqli zaif deb topilgan bola kamida 1yil maxsus maktab-internatlarida dastur asosida o‘qitiladi. Ko‘zi ojizlar uchun maktablarda, maxsus maktab-internatlarida ta‘lim maxsus nuqtalardan tashkil topgan Brayl tizimida olib boriladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abidova N.Z Maxsus psixalogiya. Toshkent 2017-yil.
2. Davletshin M.g Umumiy psixalogiya T-2002y
3. Mametov K.K Aqli zaif bolalar psixalogiyasi “O‘qituvchi” 1994y
4. Psixalogiya qisqacha lug‘at
5. Pulatova P.M Maxsus pedagogika 2014-yil